

---

**XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI KREDIT LINIYALARINI HISOBIGA  
INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH AFZALLIKLARI**

**Sabirova Asal Shuxratovna**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi  
magistranti*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada xalqaro moliya institutlari tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarga ajratiladigan kredit liniyalarining iqtisodiy o'sish, infratuzilma rivoji va ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishdagi o'rni yoritilgan. Muallif xalqaro moliya institutlarining (Jahon banki, XVJ, AIIB va boshqalar) funksiyalari, ularning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsiyalarni moliyalashtirish, texnik yordam ko'rsatish va iqtisodiy islohotlarni rag'batlantirishdagi roli haqida keng ma'lumot beradi. Maqolada kredit liniyalarining asosiy afzalliklari iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash, yuqori sifatli infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish va texnik yordam ko'rsatish kabi jihatlar tahlil qilingan. Shu bilan birga, kredit liniyalarining salbiy tomonlari tashqi qarzning ortishi, qattiq shartlar, resurslarning noto'g'ri taqsimlanishi, iqtisodiy va siyosiy mustaqillikka salbiy ta'siri tanqidiy yondashuv asosida ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** moliya, xalqaro moliya, moliya institutlari, investitsiya, loyihalar, xalqaro kredit, kredit liniyalarini.

**ADVANTAGES OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH  
CREDIT LINES FROM INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS**

**Sabirova Asal Shuxratovna**

*Master's student of the Banking and Finance Academy of the Republic of  
Uzbekistan*

**Abstract.** *This article examines the role of credit lines provided by international financial institutions to developing countries in economic growth, infrastructure development, and the implementation of social projects. The author provides extensive information on the functions of international financial institutions (World Bank, IMF, AIIB, etc.), their role in ensuring economic stability, financing investments, providing technical assistance, and promoting economic reforms. The article analyzes the main advantages of*

*credit lines, such as supporting economic growth, financing high-quality infrastructure projects, implementing sustainable development goals, and providing technical assistance. At the same time, the negative aspects of credit lines, such as increasing external debt, strict conditions, misallocation of resources, and negative impact on economic and political independence, are considered on the basis of a critical approach.*

**Keywords:** *finance, international finance, financial institutions, investment, projects, international credit, credit lines.*

Bugungi kunda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar zarur. Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar va iqtisodiyoti o'sayotgan davlatlar uchun xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etilgan kredit liniyalari muhim ahamiyatga ega. Ushbu kredit liniyalari, ular orqali ajratilgan moliyaviy resurslar, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda asosiy vosita hisoblanadi.

Xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Xalqaro valuta jamg'armasi, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki va boshqalar) o'z resurslarini rivojlanayotgan davlatlarga, ayniqsa, investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun ajratadi. Bu resurslar, o'z navbatida, yangi ish o'rinalarini yaratish, infratuzilma ob'ektlarini qurish, ekologik masalalarni hal qilish va ijtimoiy xizmatlarni yaxshilashga yordam beradi. Shu bois, mazkur mavzu iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va xalqaro moliya resurslarining samarali foydalanishiga oid dolzarb muammolarni o'rganishga qaratilgan.

Xalqaro moliya institutlari - bu davlatlar yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan moliyaviy institutlar bo'lib, ular davlatlar, korxonalar va boshqa moliyaviy sub'ektlarga kredit, grantlar, kredit liniyalari va boshqa moliyaviy vositalar taqdim etadi. Ular ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun moliyaviy yordamning asosiy manbai hisoblanadi. Masalan, Jahon banki va Xalqaro valuta jamg'armasi global miqyosda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va muammolarni hal qilishda katta rol o'yaydi.

Kredit liniyalari - bu ma'lum bir vaqtda va ma'lum bir miqdordagi moliyaviy resurslarni kredit sifatida ajratish uchun moliya tashkiloti tomonidan taqdim etiladigan shartnomaviy mablag'lardir. Kredit liniyalari ko'pincha inflyatsiya yoki boshqa iqtisodiy muammolarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan investitsiyalarni moliyalashtirishda qo'llaniladi. Mamlakatlar bu liniyalardan uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida foydalanishadi. Kredit liniyalari turli shartlarda, ya'ni, foiz stavkasi, to'lov muddatlari va boshqa shartlar bo'yicha belgilanadi.

Xalqaro moliya institutlari kredit liniyalari orqali, mamlakatlarga uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga

oshirish imkonini beradi.

**Xalqaro moliya institutlarining asosiy vazifalari**

1. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash: Xalqaro moliya institatlari, ayniqsa, Xalqaro Valuta Jamg'armasi (XVJ) va Jahon Banki, davlatlar iqtisodiyotlaridagi barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan dasturlarni amalga oshiradi. Ular o'z resurslarini global miqyosda iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun taqdim etadilar, jumladan, inflyatsiyani boshqarish, valyuta kursining barqarorligini saqlash va iqtisodiy inqirozlarni oldini olish.

2. Investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash: Xalqaro moliya institatlari mamlakatlarning infratuzilma, energetika, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa ijtimoiy sektorlardagi investitsiya loyihamashtirish orqali ularning iqtisodiy o'sishini qo'llab-quvvatlashadi. Bu institutsiyalar tomonidan ajratilgan kreditlar ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim bo'lib, ularning iqtisodiy rivojlanishiga va ijtimoiy infratuzilmaning mustahkamlashiga yordam beradi.

3. Yordam va grantlar ajratish: Xalqaro moliya institatlari ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarga shuningdek, grantlar va yordam resurslarini ajratadi. Masalan, Jahon Banki va Osiyo Infratuzilma Investitsiyalari Banki (AIIB) ijtimoiy infratuzilma va barqaror rivojlanish loyihamalariga katta e'tibor qaratadi. Ular hamda boshqa xalqaro moliya institatlari jahon iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy masalalarga e'tibor berishadi.

4. Iqtisodiy islohotlarni rag'batlantirish: Xalqaro moliya institatlari ko'pincha iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga yordam beradi, masalan, erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish, moliya tizimini isloh qilish, davlat boshqaruvini takomillashtirish va boshqa iqtisodiy islohotlar. Bular orqali ular rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy tizimlarini yanada samarali qilishga intilishadi.

5. Texnik va ilmiy yordam: Bu institutlar mamlakatlarga texnik va ilmiy yordamni taqdim etishadi. Bu yordam ko'pincha iqtisodiy tahlil, moliya boshqaruvi, ijtimoiy siyosat va boshqa sohaga oid masalalarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro moliya institatlari mamlakatlar rivojlanishida juda muhim rol o'ynaydi, chunki ular iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradigan, rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam beradigan, va iqtisodiy barqarorlikni saqlashga yordam beradigan resurslarni taqdim etadi. Ularning mamlakatlar rivojlanishidagi o'rni quyidagi jihatlarga bog'liq:

1. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash: Xalqaro moliya institatlari kredit liniyalarini taqdim etish orqali davlatlarga investitsiya loyihamalarni amalga oshirishda yordam beradi. Bu resurslar, masalan, infratuzilma, energetika va ijtimoiy sohalarda amalga oshiriladigan loyihamalar uchun ajratiladi.

2. Infratuzilma rivoji: Jahon Banki, Osiyo Infratuzilma Investitsiyalari Banki (AIIB) va boshqa xalqaro moliya institatlari infratuzilma loyihamalarni moliyamashtirish orqali

rivojlanayotgan mamlakatlarda transport, suv ta'minoti, energetika va ijtimoiy xizmatlar kabi asosiy sohalarning rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

3. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish: Xalqaro moliya institutlari mamlakatlarga xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda yordam beradi. Ular mintaqaviy va global miqyosda iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlashga, investitsiyalarni jalg qilishga, va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Barqaror rivojlanish maqsadlarini qo'llab-quvvatlash: Bu institutlar BMT tomonidan belgilangan Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ular ekologik barqarorlik, jamiyatdagi tenglik va ijtimoiy farovonlikka qaratilgan loyihalarini moliyalashtirish orqali iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni birgalikda hal qilishga yordam beradi.

Xalqaro moliya institutlari mamlakatlarning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishiga katta hissa qo'shadi, iqtisodiy tizimlarni modernizatsiya qilishga, global iqtisodiy o'sishga, va jamiyatlar o'rtaсидаги hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Xalqaro moliya institutlari kredit liniyalarining ijobjiy tomonlari

1. Iqtisodiy o'sish va rivojlanishni rag'batlantirish: Xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etilgan kredit liniyalarini mamlakatlar iqtisodiy o'sishini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Bu kreditlar, ayniqsa, infratuzilma, energetika, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa ijtimoiy sohalarda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yordam beradi. Bu o'z navbatida yangi ish o'rinnari yaratadi, ijtimoiy xizmatlarni yaxshilaydi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

2. Yuqori sifatli infratuzilma loyihalari: Xalqaro moliya institutlari odatda yuqori sifatli loyihalarini qo'llab-quvvatlaydi. Ular davlatlar va xususiy sektor uchun zarur infratuzilma va ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda qo'llab-quvvatlovchi manba bo'lib xizmat qiladi. Buning natijasida, mamlakatlarda suv ta'minoti, yo'llar, ko'priklar, elektr energiyasi kabi asosiy infratuzilma tizimlari takomillashadi.

3. Barqaror rivojlanishga ko'maklashish: Kredit liniyalarini xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etilayotgan barqaror rivojlanish dasturlari va maqsadlarini amalga oshirishga yordam beradi. Mamlakatlar ekologik masalalarni hal qilish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikni saqlashda ushbu moliyaviy yordamdan foydalanishadi.

4. Moliyaviy nazorat va texnik yordam: Xalqaro moliya institutlari, kredit liniyalarini taqdim etish bilan birga, investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun texnik va maslahat yordamlarini ham ko'rsatadi. Bu yordam, loyihalarini samarali boshqarish va sifatli bajarilishi uchun zarur bo'lgan mutaxassislikni ta'minlaydi.

Kredit liniyalarining xatarli tomonlari va davlatlarga ta'siri:

1. Kreditning ortib borayotgan qarzi: Xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim

etilgan kredit liniyalarini rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzini oshirishi mumkin. Bu, ayniqsa, uzoq muddatli kreditlar bo'lsa, iqtisodiy o'sishdan ortiqcha qarz yukini olib keladi. Natijada, davlatlar yuqori foiz stavkalarini bilan qarzlarini to'lashga majbur bo'lishadi, bu esa iqtisodiyotning barqarorligini xavf ostiga qo'yishi mumkin.

2. Kreditning shartlari va talablarining qattiqligi: Xalqaro moliya institutlari ba'zan kredit liniyalarini taqdim etishning qattiq shartlariga ega bo'lishi mumkin. Bu shartlar davlatlar uchun iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda qat'iy islohotlarni amalga oshirishni talab qiladi. Bunday islohotlar ba'zan mamlakatlar uchun qiyinchiliklarga olib kelishi va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin.

3. Suvviylik va resurslarni noto'g'ri taqsimlash: Ba'zan kredit liniyalarining ajratilishi noto'g'ri yoki kam samarali loyihalarga yo'naltiriladi. Bu resurslar samarali ishlatilmaydi va ular joriy ijtimoiy yoki iqtisodiy masalalarni hal qilish o'rni, boshqa kam samarali yoki keraksiz loyihalarga sarflanadi. Natijada, investitsiyalar mamlakatning haqiqiy ehtiyojlarini qondirmaydi.

4. Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni buzish: Kredit liniyalaridan noto'g'ri foydalanish, iqtisodiy barqarorlikni buzishi mumkin. Mamlakatlar ko'pincha o'z milliy resurslarini qisqartirish, soliqlarni oshirish yoki boshqa ijtimoiy xizmatlardan cheklashga majbur bo'lishadi, bu esa aholi o'rtasida noroziliklarga olib kelishi mumkin. Yangi qarzlar va yuqori to'lovlar aholining iqtisodiy farovonligiga zarar yetkazishi mumkin.

5. Tashqi bosim va mustaqillikni yo'qotish: Xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etilgan kreditlar, ba'zan davlatlarning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini cheklaydi. Shartlar va talablar ko'pincha tashqi muassasalar tomonidan belgilanadi, bu esa mamlakatning o'z iqtisodiy va siyosiy yo'lini belgilashda erkinligini kamaytirishi mumkin.

Xalqaro moliya institutlari kredit liniyalarini taqdim etish orqali rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sishiga va barqaror rivojlanishiga katta hissa qo'shmaqda. Ushbu kreditlar mamlakatlarning infratuzilmasini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ekologik masalalarni hal qilish va ijtimoiy xizmatlarni yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Biroq, kredit liniyalaridan noto'g'ri foydalanish, mamlakatlarning tashqi qarzini oshirishi, iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi va ijtimoiy barqarorlikni buzishi mumkin.

Shu sababli, xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratilgan kreditlar ehtiyyotkorlik bilan boshqarilishi, moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishi va davlatlar uchun to'g'ri shartlar yaratish zarur. Yalpi iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun kredit liniyalarining shartlari, foiz stavkalarini va qarz to'lov muddatlari davlatlar ehtiyojlariga mos kelishi lozim. Mamlakatlar ham kredit liniyalarini taqdim etishda, o'z iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini saqlab qolish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikni saqlashga alohida

e'tibor qaratishlari zarur. Shunday qilib, xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalari, to‘g‘ri boshqarilgan va muvofiqlashtirilgan holda, mamlakatlarning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashda samarali vosita bo‘lishi mumkin.